

SUV KOMPONENTLI FRAZEMALAR

Mo'minova Ma'suma

SHDPI o'qituvchisi

Annotatsiya:

Suv kishilik jamiyatida muhim o'rin tutgani, o'zbek madaniyatida suvga "hayot manbai" deb baho berilgani bu tushunchaning madaniy kod darajasida takomillashuviga asos bo'lgan. O'zbek madaniyatida suv bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p qo'llanadi. O'xshatishlarning barchasida o'zbek xalqining suv belgilarini o'zlashtirish xususiyatlari, suv bilan ifoda etilayotgan narsa-buyum, hodisa o'rtasidagi aloqadorlikni anglash, idrok qilish qobiliyati namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: suv, leksima, o'zbek madaniyati, sug'ormoq; suvning ko'tarilishi, suvning yo'lini ochmoq, sug'ormoq.

Abstract:

The fact that water occupies an important place in human society, and that water is valued as the "source of life" in Uzbek culture is the basis for the improvement of this concept at the level of the cultural code. In Uzbek culture, similes related to water are often used. All the similes show the ability of the Uzbek people to master water signs, to understand and perceive the relationship between things and events represented by water. Key words: water, lexeme, Uzbek culture, watering; rise of water, to open the way of water, to irrigate.

Аннотация:

Тот факт, что вода занимает важное место в человеческом обществе, а также то, что вода ценится как «источник жизни» в узбекской культуре, является основой для совершенствования этого понятия на уровне культурного кода. В узбекской культуре часто используются сравнения, связанные с водой. Все сравнения показывают способность узбекского народа владеть водными знаками, понимать и воспринимать взаимосвязь между вещами и событиями, изображаемыми водой. Ключевые слова: вода, лексема, узбекская культура, полив; подъем воды, чтобы открыть путь воде, оросить.

Suv leksemasi birikmalar tarkibida o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanadi: suv ichmoq 1) suv iste'mol qilmoq; 2) sug'orilmoq; suv qo'ymoq – sug'orish uchun suvning yo'lini ochmoq, sug'ormoq; suvning ko'tarilishi – daryo yoki dengiz havzasidagi suv miqdorining oshishi. Tadqiqot jarayonida suv komponenti ishtirok etgan, leksema o'z ma'nosida qo'llangan 10ta matn parchasini tahlilga tortdik. Bularning barchasida suv komponenti o'z ma'nosida: "rangsiz, suyuq holdagi kimyoviy modda" ma'nosida qo'llangan bo'lsa-da, muayyan semalari bilan

farqlangan. Bundan xulosa qilish mumkinki, matn nafaqat soʻz maʼnosini reallashtiruvchi, leksemaning koʻchma maʼnosini aniqlashtiruvchi omil ekan, balki leksema semalarini roʻyobga chiqaruvchi muloqot birligi sifatida ham ahamiyatga egadir. Suv leksemasi semantikasidagi farqlar matn tarkibidagi boshqa leksemalarning semantikasi orqali namoyon boʻladi. Masalan, toshqin → “sel”, “balo”, “ofat”, “katta hajm”, “shiddat”, “oqim” semalarining, tub → “chuqurlik” semasining, nasos, chiqarmoq → “sunʼiylik” semasining yuzaga chiqishiga omil boʻlgan.

Suv kishilik jamiyatida muhim oʻrin tutgani, oʻzbek madaniyatida suvga “hayot manbai” deb baho berilgani bu tushunchaning madaniy kod darajasida takomillashuviga asos boʻlgan. Oʻzbek madaniyatida suv bilan bogʻliq oʻxshatishlar koʻp qoʻllanadi. Oʻxshatishlarning barchasida oʻzbek xalqining suv belgilarini oʻzlashtirish xususiyatlari, suv bilan ifoda etilayotgan narsa-buyum, hodisa oʻrtasidagi aloqadorlikni anglash, idrok qilish qobiliyati namoyon boʻladi. Suvday bilmoq (yoki ichmoq, ezib ichmoq) – juda yaxshi bilmoq, chuqur, puxta bilib olmoq, egallamoq. “Suvday bilish” suvda xotira, idrok bor, “suv axborotni saqlaydi”, “uzatadi” degan qarash suv konseptida bilim bilan aloqadorlikni yuzaga keltirgan. “Devonu lugʻotit-turk”da qayd etilgan bolalar oʻyinida suvning aql, xotira bilan bogʻliq belgilari aks etgan. U.Joʻraqulov suvning tashqaridan boʻladigan har qanday taʼsirni qabul qilishini taʼkidlaydi. Yapon olimi fikrlariga tayanib, suvning “gapirishi”, “eshitishi”, koʻrishi”ni qayd etadi. Tushunchalarni zid, kontrast usulda tasvirlash barcha turkiy tillarda kuzatiladi. Umuman, zidlanish aksariyat jahon tillariga xos boʻlib, qarama-qarshi qoʻyilayotgan voqelikning muhim belgilarini ajratib koʻrsatishga xizmat qiladi. Oʻt va suv tushunchalari zidligi koʻpgina tillarda uchraydi. Suv komponentli birliklarning aksariyatida olov leksemasi bilan zidlanish holati bor. Bir ayoq suv birla yutqudek – nozik. Bu oʻxshatish mumtoz manbalarda faol qoʻllangan: Husn-u lutfi jon aro yer tutqudek, Bir ayoq suv birla balkim yutqudek. Bu ibora hozirgi oʻzbek tilida bir qoshiq suv bilan yutgudek shaklida ishlatiladi. Iboraning tarixiy shaklida suv hajmi ayoq (idish) bilan oʻlchangan boʻlsa, hozirda oʻlchov soʻzi sifatida qoshiq numeratividan foydalaniladi. Suv miqdorining ayoq (idish) bilan oʻlchanishi tabiiy hol hisoblanadi, ammo qoshiq bilan oʻlchanishi gʻayriodatiy holat. Bu oʻrinda qoshiq suv miqdorini kichraytirib koʻrsatishga, hajmning tor doirasini ifodalashga xizmat qilgan. Suv komponentli oʻxshatishlarda “suyuqlik”, “isteʼmol uchun qulaylik”, “tiriklik”, “hayot” semalari aks etgan. Suv koʻchma maʼnoda qoʻllanib, oʻxshatish asosida soʻzlovchining narsa- hodisaga, voqelikka salbiy munosabatini ifoda etadi: maza-matrasi, shirasi yoki jiri yoʻq (meva yoki ovqat haqida): qovun suv boʻlib ketgan; shoʻrva emas, shildir suv olib kelishdi. Mazasiz, bemaza narsa haqida “suvda maza bor, bunda maza yoʻq” oʻxshatishi ishlatiladi: Suv taʼmsiz, hidsiz, rangsiz suyuqlik sifatida tavsiflanadi. Bu yerda til sohibi suvda mavjud boʻlmagan taʼm belgisini “bor” deb tasdiqlash asosida qiyoslanayotgan narsa-hodisa, aniqrogʻi, taomning maza-taʼmga ega emasligini taʼsirchan ifodalaydi. Suv leksemasi yer, don, havo soʻzlari bilan juft qoʻllanib, umumlashtiruvchi maʼno ifodalaydi: yer-

suv, suv-don, suv- havo. O‘zbek tilida suv leksemasining fors-tojik tilidan o‘zlashgan sinonimi – ob so‘zi va undan shakllangan birliklar ishlatiladi: obidiya – ko‘z yoshi, ob-havo yoki obu havo, ob-yovg‘on, obu tobida. X.Jabborov ob komponentli 48ta so‘zning izohini keltirgan. Suv bir qancha leksemalar bilan assotsiatsiya hosil qiladi: yomg‘ir, buloq, dengiz, daryo, ariq, ko‘l, do‘l, zilol, ibriq, suyuq. Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Suv komponentli sodda yasama leksemalarning milliy-madaniy xususiyatlari” deb nomlanadi. Suv asosidan o‘ndan ortiq sodda leksema yasalgan. O‘zbek tilida suv o‘zagi asosida yasalgan suvli, suvsiz, suvsizlik, suvlik, suvchi, suvchilik, sersuv, suvloq, suvsoq, suvsamoq suvlamoq, suvlatmoq, suvsiramoq, suvdon, suvxo‘r so‘zlari faol qo‘llanadi. Mazkur birliklar kontekstda madaniy kod belgisiga ega bo‘ladi. Suv asosidan yasalgan yangi leksemalar suv semantikasida mavjud semalar asosida yuzaga kelgan. X.Jabborov ot, sifat, fe‘l leksema hosil qiluvchi qo‘shimchalar orqali suv leksemasi ishtirokida sodda yasama so‘zlar modellarini keltirgan. Suvli – 1.Ichida suvi bor: suvli idish. 2.Tarkibida suvi bo‘lgan: suvli eritma. 3.Suvi, shirasi ko‘p, sersuv, sershira: suvli shaftoli, suvli mevalar. 4.Suv bilan ta‘min etilgan, suv bor bo‘lgan: suvli yerlar. Suvli so‘zi tarkibidagi -li 1- va 2- ma‘nolarda suvning mavjudligini ifodalasa, 3-ma‘nosida suvning me‘yordan ortiqqligini ifoda etadi. 4-ma‘nosida “namlik” tushunchasi ham mavjud. Suvli leksemasining “namlik” semasi ko‘proq dehqonchilik bilan shug‘ulladigan shaxslar nutqida kuzatiladi. Suvli leksemasi suv asosining semalari va -li qo‘shimchasining ko‘p ma‘nolilik xususiyatlaridan kelib chiqib, “suyuq taom” ma‘nosini ham bildiradi: suvli norin. Suvlatmoq 1. “Suv bilan ho‘llamoq, namlamoq” 2. shv.Sug‘ormoq, suv bermoq (hayvon va parrandalarga). Suvlamoq shaklida ham qo‘llanadi. Suvlamoqning yana bir ma‘nosi “tandirda pishayotgan non yuziga yaltirashi uchun suv urish”dir. Bu ma‘no xalqimizning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, keyingi paytlarda kam qo‘llanmoqda. Suv komponenti ayrim leksemalar tarkibida yaxlitlanib qolgan, bu so‘zlar tarkibidagi suv komponentini etimologik tahlillar orqaligina aniqlash mumkin: suva, suvoq, suvoqli, suvoqchilik, suvliq, suvsar, suvot, sug‘ormoq, suyuq. Masalan, suvoq – “suv bilan ishlov berish” degan ma‘noni anglatadi. Ikkinchi bobning uchinchi fasli “Suv komponentli qo‘shma leksemalarning milliy-madaniy xususiyatlari”deb nomlanadi. Qo‘shma so‘zlarning yuzaga kelish omillari har bir tilning o‘ziga xos bo‘lib, suv komponentli qo‘shma so‘zlar, asosan, birikmalarning yaxlit bir lug‘aviy ma‘noni ifodalashga xoslanishi natijasida shakllangan: suvo‘ti, suvilon, suvosti, sariq suv: Sariq suv qo‘shma so‘zi qatiqning suzmaga aylanish jarayonida sizdirilgan suvga nisbatan ishlatiladi. Bu o‘rindagi sariq shunchaki rangni bildirmaydi, balki suv bilan birgalikda bir tushunchani, ya‘ni alohida moddani nomlaydi. Sariq suv “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nazla so‘zi ma‘nosiga tenglashtirib izohlangan. Nazla [a. – shamollash]. Ko‘z yoki burun shilliq pardasining yallig‘lanishi, tumov natijasida ko‘z yoki burundan oqadigan shilimshiq sariq suv (O‘TIL,III,10). Suzma tarkibiga oid tushunchani ifodalagan sariq suv birikmasi uchramadi. Sariq suv badiiy matnda kimyoviy modda nomiga nisbatan ham ishlatilgan: “Peshonasi”ga “Kimyo laboratoriyasi” deb yozib qo‘yilgan, ichiga bor-yo‘g‘i to‘rtta sariq suv to‘ldirilgan

shisha banka.... qo'yilgan xonada.... Suv qo'shma toponimlar, gidronimlar tarkibida uchraydi: Qizilsuv, Qorasuv, Bo'zsuv, Oqsuv, Yettisuv, Ko'ksuv. Suv komponenti qo'shma shakldagi terminlar tarkibida keladi: suv formulasi, suv tarkibi, suvosti, suv yo'li, suvqog'oz, suvo't, suvchechak, suvqovoq, toshsuvsar, suv kalamushi, suv echkilari, suv burgut, suvilon, suv qurtlari. Nahang (kit) dengiz suvining qahramoni bo'lsa ham, oqibat ko'plab suv qurtlariga yem bo'ladi. Suv qo'shma fe'llar tarkibida kelib, suv bilan bog'liq harakat-holat, jarayonni ifodalaydi: suv bo'lmoq 1) terlab, ho'l bo'lmoq, terga botmoq; 2) erib suvdek bo'lmoq; suv urmoq – non yopganda yaltirashi uchun yuziga suv purkamoq; suv bermoq – xamir qoriganda pishiq chiqishi uchun suvlab turmoq.

Suv komponentli yasama leksemalar asos bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan yangi lug'aviy ma'noni ifodalaydi. Sodda yasama leksemalar suv leksemasi semantikasiga aloqador yangi va semalarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Suv leksemasidan grammatik ko'rsatkichlar orqali shakllangan so'z shakllari, yasovchi qo'shimchalar bilan yuzaga kelgan leksemalar, semalardan tarkib topgan semantik to'rlar hosil bo'ladi. "Semantik to'r" semantika masalalariga qaratilgan integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri hisoblanadi⁴⁶. Suv leksemasining semantik to'rlari bir konsept doirasidagi munosabatga asoslanadi. Suv leksemasi semalari asosida ellikka yaqin so'z mazmuniy jihatdan birikib, semantik to'rni hosil qiladi. Har bir leksema alohida semantik uzvlar asosida kichik semantik to'rlarni hosil qiladi. Suv asosidagi semantik to'rlarni hosil qiluvchi leksemalar yadro maqomiga ega bo'ladi. Suv leksemasi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1) suyuq kimyoviy modda; 2) ichimlik; 3) daryo, ko'l, dengiz, soy, quduq; 4) meva shirasi, sharbati; 5) inson tanasidagi suyuqlik: ter, so'lak, balg'am, sut, ko'z yoshi, tupurgi va hokazo; 6) "to'g'ri yoki to'lqinsimon chiziq shaklidagi gul elementi"; 7) o'lchov birligi (uzunlik o'lchovi). Ushbu ma'nolarni ham hisobga olganda suvning semantik tarkibi 62 semadan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б.152.
2. Холмурадова М. "Қутадғу билиг" лексикаси. Филол. фан.фалс.док. (PhD)...дисс. – Тошкент, 2019. – Б.135.
3. Рихсиева К. "Қап=" асосли бирликлар генезиси ва семантик тараққиёти. Филол. фан. фалс.док. (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.20.
4. Хайруллаев, Д. Б. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ МАТЛАВ В РЕШЕНИИ СИСТЕМЫ ЛИНЕЙНЫХ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ. In Инновации в технологиях и образовании (pp. 97-99).
5. Хайруллаев, Д. Б. "ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ МАТЛАВ В РЕШЕНИИ СИСТЕМЫ ЛИНЕЙНЫХ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ." Инновации в технологиях и образовании. 2022.

6. Sodiqovich, X. J. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY HAYOTNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION IMKONIYATLARIDA KITOBLARNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(3), 33-39.
7. Sadikovich, K. J. (2023). CHARACTERISTICS OF THE CONTENT AND IMPLEMENTATION OF THE CONCEPT OF "PRINCIPLES OF SPIRITUAL LIFE" AT A NEW STAGE IN THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN. Open Access Repository, 9(5), 190-195.